

INGLIZ TILIDA PARONIMLARNING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

*Alfraganus universiteti Ijtmoiy fanlar fakulteti
Logopediya yonalishi 3 kurs talabasi
Turg'unboyeva Feruza Shuxrat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi paronimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning nutqiy qo‘llanishidagi muammollar va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Paronimlar shakl jihatidan o‘xshash, biroq ma’noda farq qiluvchi so‘zlardir. Ingliz tilidagi paronimlar ko‘pincha o‘quvchilar va tarjimonlar uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki ular noto‘g‘ri qo‘llanilganda nutqiy xatolik yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: Paronim, semantika, qo‘llanish, sinonim, tarjima, nutqiy xato.

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ПАРОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В статье анализируются особенности паронимов в английском языке, проблемы их употребления в речи и трудности перевода. Паронимы это слова, сходные по форме, но разные по значению. Паронимы в английском языке часто вызывают трудности у читателей и переводчиков, поскольку при их неправильном употреблении возникают речевые ошибки. Ключевые слова: пароним, семантика, употребление, синоним, перевод, речевая ошибка.

PECULIARITIES OF THE USE OF PARONYMS IN ENGLISH

Abstract: This article analyzes the characteristics of paronyms in English, their usage, and translation difficulties. Paronyms are words similar in form but different in meaning. Paronyms in English often cause difficulties for readers and translators, as their incorrect use leads to speech errors.

Keywords: paronym, semantics, usage, synonym, translation, speech error.

Ingliz tilining leksik tizimi murakkab va nihoyatda boy bo‘lib, unda turli xil leksik-semantik hodisalar mavjud. Shulardan biri paronimiya hodisasidir. Paronimlar talaffuz yoki yozilish jihatidan bir-biriga yaqin, ammo ma’noda farq qiladigan so‘zlardir. Ular ko‘pincha umumiy ildizga ega bo‘ladi, lekin turli qo‘srimchalar orqali ma’no jihatidan ajralib turadi. Masalan, ingliz tilidagi affect effect, economic – economical, historic – historical kabi juftliklar paronimlarga misol bo‘la oladi.

Bunday so‘zlarning farqini chuqur anglamaslik ko‘pincha semantik noaniqlik va nutqiy xatolarga olib keladi. Masalan, economic crisis “iqtisodiy inqiroz” va economical car “tejamkor avtomobil” kabi iboralarda bir xil ildizga ega bo‘lgan, ammo ma’nosи keskin farq qiluvchi paronimlar qo‘llangan. Bu kabi holatlarda so‘zlarning noto‘g‘ri ishlatalishi nafaqat grammatik, balki mazmuniy xatoga ham sabab bo‘ladi.

Shu bois paronimlarni to‘g‘ri qo‘llash masalasi ingliz tilshunosligida ham, amaliy nutqiy faoliyatda ham dolzarb hisoblanadi. Chunki ular nutqda aniq ifodani ta’minkaydi, noto‘g‘ri qo‘llanishi esa tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, paronimlarning to‘g‘ri ishlatalishi tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon ularning semantik farqlarini anglamagan taqdirda, matnning mazmunini noto‘g‘ri yetkazishi mumkin.

Demak, ingliz tilidagi paronimlarni o‘rganish, ularning semantik hamda stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llash mexanizmlarini aniqlash va tarjimada adekvat ekvivalent topish masalalari bugungi lingvistik tadqiqotlar uchun ham dolzarbdir.

Paronimlarning lingvistik ta’rifi va turlari: Ingliz tilida paronimlar, odatda, umumiy morfologik ildizga ega bo‘ladi, biroq qo‘sishchalari orqali ma’noda farq qiladi. Masalan, personal personnel so‘zleri shaklan juda yaqin, lekin biri “shaxsiy”, ikkinchisi esa “xodimlar” ma’nosini bildiradi. Bu kabi misollar til o‘rganuvchilar uchun chalkashlik tug‘diradi.

Paronimlarning nutqiy qo‘llanilishi: Paronimlar nutqda ko‘pincha uslubiy rang-baranglikni ta’minkaydi, biroq noto‘g‘ri qo‘llanganda nutqning mazmuni buziladi. Masalan, historic event (tarixiy ahamiyatga ega voqeа) bilan historical novel (tarixiy roman) o‘rtasidagi farqni hisobga olmaslik ma’no chalkashligiga olib keladi.

Paronimlarni o‘rganishdagi muammolar: Ingliz tilida paronimlar ko‘pincha fonetik o‘xshashlikka ega bo‘lib, talaffuzdagi kichik farq ularning ma’nosini keskin o‘zgartiradi. Masalan, complement (to‘ldirmoq) va compliment (maqtov) so‘zleri. Ularning noto‘g‘ri qo‘llanishi nafaqat grammatik xato, balki semantik noto‘g‘rilik ham keltirib chiqaradi.

Tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar: Paronimlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ko‘pincha muqobil so‘z tanlashda ehtiyojkorlik talab etiladi. Chunki ba’zi paronimlar o‘zbek tilida sinonim sifatida ifodalanishi mumkin. Masalan, economic crisis “iqtisodiy inqiroz”, economical car esa “tejamkor avtomobil” deb tarjima qilinadi. Bu yerda “economic” va “economical” so‘zlarining farqini to‘g‘ri anglash muhimdir.

Ingliz tilidagi paronimlarning o‘rni tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Paronimlar o‘ziga xos murakkab hodisa bo‘lib, ularni noto‘g‘ri ishlatalish nutq mazmunining buzilishiga, mantiqiy izchillikning yo‘qolishiga hamda kommunikativ samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ularning semantik farqlarini to‘g‘ri anglash nafaqat lingvistik tahlil, balki amaliy nutqiy faoliyat uchun ham zarurdir.

Paronimlarni chuqur o‘rganish, ularning qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlash, ularni bir-biridan ajratib ko‘rsatish o‘quvchi va tarjimonlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi paronimlarni qiyosiy tahlil qilish ularni to‘g‘ri qo‘llash imkonini oshiradi, tarjima jarayonida ekvivalent tanlashni osonlashtiradi va nutqiy savodxonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, paronimlarni o‘rganish jarayoni til o‘rganuvchilarning semantik sezgirlingini oshiradi, kontekstni chuqur tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi va nutqiy xatolarning oldini olishga yordam beradi. Shu jihatdan ingliz tilidagi paronimlarning nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilishi bugungi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, paronimlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi nafaqat lingvistik madaniyatni, balki kommunikativ savodxonlikni ham belgilovchi muhim omildir. Shuning uchun ingliz tilidagi paronimlarni izchil tahlil qilish, ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini aniqlash va qiyosiy o‘rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan katta foyda keltiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press, 2019.
2. Palmer, F.R. *Semantics: A New Outline*. Cambridge University Press, 1981.
3. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988.
4. Раҳматуллаев, Ш. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
5. Мўминов, Н. *Таржима назарияси асослари*. Тошкент: Фан, 2010.